



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “27” avgust

BUYRUQ № 162

Toshkent sh.

**“Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning
tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha
tartib”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 31- maydagi “Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartib”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 131- son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 29- avgustdagi “Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 31-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi “Sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligini aniqlash bo‘yicha uslubiy Nizom”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 45- son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- apreldagi “Yoqilg‘i va energiya balansini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 11-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 21- fevraldagi "Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartibi"ga qo'shimchalar kiritish haqida" 34- son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor



B. Begalov